Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish


Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari……458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash……467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)……475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash……484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli……493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari……501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг……546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish……554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish……563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari……574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari……582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish……590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini……602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish……613

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 338.43:339.9(100)

AGRAR SOHADA BARQAROR RIVOJLANISH MEXANIZMLARINING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH

YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi
E-mail: ayzadayakupova@gmail.com, ayzada@uit.uz
https://orcid.org/0009-0008-9328-2997

Annotatsiya. Maqolada agrar sohada barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning beshta xorijiy modeli – Yevropa Ittifoqi, AQSH, Isroil, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Har bir model asosiy vositasi, moliyalash manbai, erishilgan natijasi va institutsional shartlari bo‘yicha baholangan. Tadqiqot natijasida modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish samarasizligi asoslanib, uch bosqichli moslashtirish filtri taklif etilgan: institutsional muvofiqlik, resurs imkoniyati va tabiiy-iqlimiy mos kelish. Ushbu filtr orqali o‘n ikkita xorijiy vosita baholanib, ulardan to‘rttasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, oltitasi moslashtirilgan holda qo‘llanilishi mumkinligi, ikkitasi esa Qoraqalpog‘iston sharoitida qo‘llanilmasligi aniqlangan. Suv resurslari tanqis mintaqalar uchun Isroil va Xitoy tajribasining ustuvorligi asoslangan.
Kalit so‘zlar: xorijiy tajriba, barqaror rivojlanish, agrar siyosat, eko-sxemalar, suvni qayta ishlatish, qishloq xo‘jaligi kooperativlari, institutsional moslashtirish, Orolbo‘yi.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ пяти зарубежных моделей поддержки устойчивого развития аграрной сферы – опыта Европейского союза, США, Израиля, Китая и Южной Кореи. Каждая модель оценена по основному инструменту, источнику финансирования, достигнутому результату и институциональным условиям. Обоснована неэффективность прямого копирования моделей и предложен трёхступенчатый фильтр адаптации: институциональное соответствие, ресурсная возможность и природно-климатическая совместимость. С помощью данного фильтра оценены двенадцать зарубежных инструментов, из которых четыре применимы напрямую, шесть – в адаптированном виде, два неприменимы в условиях Каракалпакстана. Обоснован приоритет опыта Израиля и Китая для регионов с дефицитом водных ресурсов.
Ключевые слова: зарубежный опыт, устойчивое развитие, аграрная политика, эко-схемы, повторное использование воды, сельскохозяйственные кооперативы, институциональная адаптация, Приаралье.

Abstract. The article provides a comparative analysis of five foreign models for supporting sustainable agricultural development – the experience of the European Union, the United States, Israel, China and South Korea. Each model is assessed by its principal instrument, funding source, achieved outcome and institutional preconditions. The study demonstrates the ineffectiveness of directly copying such models and proposes a three-stage adaptation filter: institutional compatibility, resource capacity and natural-climatic suitability. Twelve foreign instruments are assessed through this filter, of which four are directly applicable, six applicable in adapted form, and two inapplicable in the conditions of Karakalpakstan. The priority of Israeli and Chinese experience for water-scarce regions is substantiated.
Keywords: foreign experience, sustainable development, agrarian policy, eco-schemes, water reuse, agricultural cooperatives, institutional adaptation, Aral Sea region.

KIRISH

Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarini shakllantirishda xorijiy tajribani o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning an’anaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq ushbu yo‘nalishdagi ishlarning sezilarli qismi tavsiflash darajasida qolib ketadi: xorijiy modellar batafsil bayon etiladi, ammo ularning

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

milliy sharoitga tatbiq etilish shartlari tahlil qilinmaydi. Natijada tavsiyalar umumiy chaqiriqlar shaklida ifodalanadi va amaliy qiymatini yo‘qotadi.

Ushbu muammoning ildizi metodologik xarakterga ega. Har qanday qo‘llab-quvvatlash vositasi muayyan institutsional muhitda shakllangan bo‘lib, uning samaradorligi shu muhitning xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlarni ekologik talablarga bog‘lash mexanizmi yer mulkchiligi aniq belgilangan va fermerlar reyestri to‘liq shakllangan sharoitda ishlaydi. Bunday shartlar mavjud bo‘lmagan mamlakatda xuddi shu vosita butunlay boshqa natija berishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida masala qo‘shimcha murakkablikka ega. Mamlakatda agrar islohotlar faol bosqichda bo‘lib, institutsional muhit o‘zgarish jarayonida turibdi. Bundan tashqari, hududlar o‘rtasidagi tabiiy-iqlimiy farqlar sezilarli: Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun mos keladigan yechim Farg‘ona vodiysi uchun ortiqcha bo‘lishi mumkin va aksincha. Shu bois xorijiy tajribani baholashda hududiy kesim hisobga olinishi lozim.

Mazkur maqolada tavsiflovchi yondashuvdan farqli o‘laroq, baholovchi yondashuv qo‘llaniladi: har bir xorijiy vosita uning ishlashi uchun zarur bo‘lgan shartlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va ushbu shartlarning O‘zbekiston, xususan Qoraqalpog‘iston sharoitida mavjudligi baholanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar siyosat vositalarining samaradorligini baholash bo‘yicha adabiyotlarda ikki asosiy an’ana shakllangan. Birinchisi – natijaviylikni baholash bo‘lib, unda vositaning maqsadga erishishga qo‘shgan hissasi o‘lchanadi. Ikkinchisi – institutsional tahlil bo‘lib, unda vositaning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar o‘rganiladi. Mazkur tadqiqot ikkinchi an’anaga tayanadi.

D.Tilman va hammualliflar intensiv qishloq xo‘jaligining ekologik xarajatlarini baholab, siyosat vositalari resurs sarfini kamaytirishga yo‘naltirilishi zarurligini asoslagan [1]. J. Pretty esa barqarorlikni ta’minlashda texnologik yechimlar bilan bir qatorda ijtimoiy kapital va bilim almashinuvi tizimlarining ahamiyatini ko‘rsatgan [2]. Bu xulosa xorijiy tajribani tahlil qilishda faqat moliyaviy vositalarga emas, bilim uzatish mexanizmlariga ham e’tibor qaratish zarurligini bildiradi.

OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda agroekologik indikatorlar tizimi orqali turli mamlakatlarning siyosat samaradorligini qiyoslash metodikasi ishlab chiqilgan [3]. FAO SAFA metodologiyasi esa baholashni korxona darajasiga tushirgan [4]. Ikkala manba ham qiyosiy tahlil uchun uslubiy asos beradi, ammo ularda moslashtirish masalasi ko‘tarilmaydi.

Markaziy Osiyo sharoitida xorijiy tajribani tatbiq etish masalasi M.Bekchanov va hammualliflar ishlarida ko‘tarilgan. Mualliflar Amudaryo quyi oqimida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish texnik jihatdan mumkin, ammo institutsional to‘siqlar tufayli amalda cheklangan darajada amalga oshirilayotganini ko‘rsatgan [5]. N. Djanibekov va hammualliflar esa yer konsolidatsiyasi bo‘yicha xorijiy modellarni O‘zbekistonda qo‘llash tajribasini

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

tahlil qilib, tashkiliy o‘zgarishlar eski institutsional cheklovlarni saqlab qolishi mumkinligini asoslagan [6].

Mavjud adabiyotlar tahlilining xulosasi shundan iboratki, xorijiy modellar yetarlicha o‘rganilgan, ularni moslashtirishning tizimli mezonlari esa ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy-institutsional tahlil usuli qo‘llanilgan. Tahlil uchun beshta mamlakat tanlangan bo‘lib, ular quyidagi mezonlar bo‘yicha ajratilgan: agrar siyosatda barqarorlik maqsadlarining aniq ifodalanganligi; qo‘llaniladigan vositalarning turlicha bo‘lishi; O‘zbekiston sharoiti bilan taqqoslanadigan biror jihatning mavjudligi (suv tanqisligi, mayda xo‘jaliklarning ustunligi yoki o‘tish davri tajribasi).

Har bir model to‘rt parametr bo‘yicha tavsiflangan: asosiy vosita (siyosatning yadrosini tashkil etuvchi mexanizm); moliyalash manbai; erishilgan natija; vositaning ishlashi uchun zarur bo‘lgan institutsional shartlar. So‘nggi parametr tadqiqotning kaliti hisoblanadi, chunki aynan u moslashtirish imkoniyatini belgilaydi.

Moslashtirish imkoniyatini baholash uchun uch bosqichli filtr ishlab chiqilgan. Birinchi filtr – institutsional muvofiqlik: vosita ishlashi uchun zarur bo‘lgan yer munosabatlari, shartnoma tizimi va boshqaruv tuzilmasi mavjudmi. Ikkinchi filtr – resurs va moliyaviy imkoniyat: vositani joriy byudjet va texnik baza doirasida amalga oshirish mumkinmi. Uchinchi filtr — tabiiy-iqlimiy mos kelish: vosita hududning sho‘rlanish darajasi, suv rejimi va agroiqlim sharoitiga muvofiqmi.

Filtrdan o‘tish natijasiga ko‘ra har bir vosita uch toifadan biriga kiritiladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash mumkin; moslashtirib joriy etish mumkin; qo‘llanilmaydi. Uchinchi toifadagi vositalar uchun muqobil yechim izlash tavsiya etiladi. Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, baholash sifat mezonlari asosida ekspert yo‘li bilan amalga oshirilgan va uni miqdoriy tasdiqlash uchun pilot loyihalar natijalari talab etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Tahlilga jalb qilingan beshta modelning umumiy ko‘rinishi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm modellarning tipologik xilma-xilligini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi modeli me’yoriy-rag‘batlantiruvchi xarakterga ega: davlat talablarni belgilaydi va ularga rioya qilganlik uchun to‘lov beradi. AQSH modeli risklarni boshqarishga yo‘naltirilgan: asosiy vosita hosilni sug‘urtalash bo‘lib, ekologik komponent yerni vaqtincha aylanmadan chiqarish dasturlari orqali amalga oshiriladi. Isroil modeli texnologik bo‘lib, u resurs tanqisligini texnik yechimlar bilan yengishga qaratilgan.

Xitoy va Janubiy Koreya modellari esa tashkiliy xarakterga ega. Xitoyda asosiy urg‘u ixtisoslashgan kooperativlarni rivojlantirish va yerdan foydalanish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

huquqlarining aylanmasini yo‘lga qo‘yishga berilgan. Janubiy Koreya tajribasi qishloq jamoasini kompleks rivojlantirish va qayta ishlash infratuzilmasini yaratish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotining qo‘shilgan qiymatini oshirishga asoslangan.



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm. Agrar sohada barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning xorijiy modellari

Modellarning ushbu xilma-xilligi muhim uslubiy xulosaga olib keladi: barqaror rivojlanishni ta’minlashning yagona universal yo‘li mavjud emas. Har bir mamlakat o‘zining eng keskin cheklovidan kelib chiqib vosita tanlagan. Yevropada bu ekologik yuk, AQSHda bozor risklari, Isroilda suv tanqisligi, Xitoy va Koreyada esa xo‘jaliklarning maydaligi bo‘lgan. Demak, O‘zbekiston uchun ham tanlov eng keskin cheklovdan kelib chiqishi lozim – Qoraqalpog‘iston sharoitida bu suv tanqisligi va xo‘jaliklarning tarqoqligidir.

Rasmning yana bir jihati vositalarning ta’sir nuqtasiga tegishli. Yevropa va AQSH modellari ishlab chiqaruvchining qaroriga moliyaviy signal orqali ta’sir ko‘rsatadi – ular xulq-atvorni o‘zgartiradi, ammo ishlab chiqarish sharoitini o‘zgartirmaydi. Isroil modeli aksincha, bevosita sharoitni o‘zgartiradi: suv manbaini kengaytiradi va uni yetkazish usulini takomillashtiradi. Xitoy va Koreya modellari esa qaror qabul qiluvchi subyektning o‘zini o‘zgartiradi – yakka xo‘jalik o‘rniga kollektiv tuzilma shakllantiradi.

Ushbu uch xil ta’sir nuqtasi vositalarning natija berish tezligini ham belgilaydi. Moliyaviy signallar nisbatan tez ta’sir ko‘rsatadi, ammo ular olib tashlansa xulq-atvor eski holatiga qaytadi. Sharoitni o‘zgartiruvchi texnologik yechimlar sekinroq joriy etiladi, lekin ularning ta’siri barqaror. Subyektni o‘zgartiruvchi tashkiliy islohotlar eng uzoq muddat talab qiladi va eng chuqur natija beradi. Kompleks siyosat uchtala turdagi vositani birlashtirishi lozim.

Modellarning batafsil qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadval tahlili avvalo moliyalash manbalari bo‘yicha jiddiy tafovutni ochib beradi. Yevropa Ittifoqi modeli juda katta byudjet resursiga tayanadi va uni to‘liq hajmda ko‘chirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imkonsiz. AQSH modeli byudjet yuki bo‘yicha yengilroq, chunki xarajatlarning bir qismi sug‘urta bozori orqali

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

taqsimlanadi. Isroil, Xitoy va Koreya modellari esa boshlang‘ich investitsiyani talab qiladi, ammo keyingi bosqichda o‘zini o‘zi moliyalash rejimiga o‘tadi.

1-jadval

Barqaror agrar rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash modellarining qiyosiy tahlili

Mamlakat / birlashma	Asosiy vosita	Moliyalash manbai	Zarur institutsional shart
Yevropa Ittifoqi	Shartlilik (GAEC) talablari va eko-sxemalar; to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlarning kamida 25 foizi eko-sxemalarga ajratiladi	Ittifoq byudjeti (2021–2027 yillarda 387 mlrd yevro, shundan 270 mlrd yevro to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar)	To‘liq fermer reyestri; yer chegaralarining raqamli kadastri; nazorat va sanksiya tizimi
AQSH	Hosilni sug‘urtalash dasturlari; yerni saqlash (Conservation Reserve) dasturlari	Federal byudjet va sug‘urta bozori	Rivojlangan sug‘urta bozori; uzoq davrli hosildorlik statistikasi
Isroil	Tozalangan oqava suvni qayta ishlatish; tomchilatib sug‘orish texnologiyalari	Davlat investitsiyalari va xususiy sektor	Markazlashgan suv boshqaruvi; qat’iy sanitariya standartlari; texnik xizmat tarmog‘i
Xitoy	Ixtisoslashgan dehqon kooperativlari; yerdan foydalanish huquqlari aylanmasi	Davlat subsidiyalari va kooperativ mablag‘lari	Yerdan foydalanish huquqining aniq belgilanishi; kooperativ qonunchiligi
Janubiy Koreya	Qishloq jamoasini kompleks rivojlantirish; qayta ishlash infratuzilmasi	Davlat dasturlari va jamoa hissasi	Qishloq jamoalarining o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Institutsional shartlar ustuni tahlilning eng muhim qismi hisoblanadi. Yevropa modeli uchun to‘liq fermer reyestri va yer chegaralarining raqamli kadastri zarur – bu shartlarsiz shartlilik talablarini nazorat qilish imkonsiz. AQSH modeli rivojlangan sug‘urta bozorini va uzoq davrli hosildorlik statistikasini talab qiladi, chunki sug‘urta tariflari aynan shu statistika asosida hisoblanadi.

Isroil modeli uchun markazlashgan suv boshqaruvi va qat’iy sanitariya standartlari zarur. O‘zbekistonda suv boshqaruvi markazlashgan tizimga ega bo‘lgani hisobga olinsa, bu shart qisman bajarilgan deb baholanishi mumkin. Xitoy modeli esa yerdan foydalanish huquqining aniq belgilanishini va kooperativ qonunchiligini talab qiladi – bu yo‘nalishda O‘zbekistonda muayyan asos yaratilgan.

Jadvaldan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, beshta modeldan uchtasi (Isroil, Xitoy, Janubiy Koreya) institutsional shartlar bo‘yicha O‘zbekiston sharoitiga nisbatan yaqinroq turadi. Yevropa va AQSH modellari esa yuqori darajada rivojlangan institutsional infratuzilmani taqozo etadi va ular elementlar darajasida o‘zlashtirilishi mumkin.

Jadvalning yana bir muhim jihati moliyalash mexanizmining barqarorligiga tegishli. Yevropa va AQSH modellari doimiy byudjet oqimiga tayanadi: to‘lovlar har yili takrorlanadi va ular to‘xtatilsa ekologik amaliyot ham to‘xtaydi. Isroil,

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Xitoy va Koreya modellarida esa boshlang‘ich investitsiyadan keyin tizim o‘zini o‘zi moliyalash rejimiga o‘tadi – texnologiya suv sarfini kamaytirib xarajatni tejaydi, kooperativ esa a’zolik badallari hisobiga faoliyat yuritadi.

Rivojlanayotgan mamlakat uchun ushbu farq hal qiluvchi ahamiyatga ega. Doimiy byudjet yukini talab qiluvchi model uzoq muddatda barqaror bo‘lmaydi, chunki byudjet ustuvorliklari o‘zgarishi bilan dastur to‘xtatiladi. O‘zini o‘zi moliyalash rejimiga o‘tuvchi modellar esa siyosiy sikllarga kamroq bog‘liq. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida ikkinchi turdagi modellarga ustunlik berish maqsadga muvofiq.

Yevropa Ittifoqi modelining ichki tuzilmasi alohida ko‘rib chiqishga loyiq, chunki u ekologik talablarni moliyaviy rag‘batlar bilan bog‘lashning eng batafsil ishlab chiqilgan tizimi hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

Yevropa Ittifoqi umumiy agrar siyosatining ekologik talablari tuzilmasi

Element	Mazmuni	Xarakteri	O‘zbekistonga tatbiq etilishi
Shartlilik (GAEC)	To‘lov olish uchun majburiy minimal ekologik talablar	Majburiy	Elementlar darajasida: suvdan foydalanish me’yorlariga rioya qilish sharti
Almashlab ekish talabi	10 gektardan katta xo‘jaliklar uchun almashlab ekish majburiy	Majburiy	To‘g‘ridan-to‘g‘ri: sho‘rlanish sharoitida ayniqsa dolzarb
Nooproduktiv maydonlar	Yer maydonining kamida 4 foizi ekologik ahamiyatga ega maydonlarga ajratiladi; azot to‘plovchi ekinlar ekilganda 3 foiz	Majburiy	Moslashtirilgan holda: sho‘rlangan yerlarni tiklash maydonlari sifatida
Eko-sxemalar	Minimal talablardan yuqori ekologik amaliyot uchun qo‘shimcha to‘lov	Ixtiyoriy	Moslashtirilgan holda: suv tejovchi texnologiya uchun rag‘bat
Milliy strategik reja	Har bir a’zo davlat vositalarni o‘z sharoitiga moslab tanlaydi	Majburiy tartib	To‘g‘ridan-to‘g‘ri: hududiy tabaqalashtirish tamoyili sifatida

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval tahlili Yevropa modelining ikki qatlamli tuzilishini ochib beradi: majburiy minimal talablar va ixtiyoriy qo‘shimcha rag‘batlar. Ushbu tuzilmaning mantiqi shundan iboratki, minimal talablar barcha ishlab chiqaruvchilar uchun bir xil bazaviy ekologik darajani ta’minlaydi, rag‘batlar esa undan yuqoriga chiqishni iqtisodiy jihatdan foydali qiladi. Bir qatlamli tizimlarda – faqat majburlash yoki faqat rag‘batlantirish asosidagi tizimlarda – bunday samara kuzatilmaydi.

O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etilish nuqtai nazaridan eng qiziqarli element – almashlab ekish talabi. Yevropada u tuproq unumdorligini saqlash maqsadida joriy etilgan; Qoraqalpog‘iston sharoitida esa uning qo‘shimcha funksiyasi mavjud bo‘ladi – sho‘rlanish jarayonini sekinlashtirish va suv sarfini kamaytirish. Yuqoridagi tadqiqotlarda aniqlangan dukkakli don ekinlarining 28,6 barobar o‘sishi ushbu talabning amaliyotda o‘z-o‘zidan shakllanayotganini ko‘rsatadi – uni me’yoriy tartibga solish orqali mustahkamlash mumkin.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Nooproduktiv maydonlar talabini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish esa maqsadga muvofiq emas. Yevropada u biologik xilma-xillikni saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, Qoraqalpog‘istonda yer resurslari cheklangan va ularning bir qismini ataylab aylanmadan chiqarish iqtisodiy jihatdan asossiz. Buning o‘rniga ushbu talabni sho‘rlangan yerlarni meliorativ tiklash maydonlari bilan almashtirish tavsiya etiladi – bunda ekologik maqsad saqlanadi, iqtisodiy yo‘qotish esa vaqtinchalik xarakter kasb etadi.

Eko-sxemalar elementiga alohida to‘xtalish lozim, chunki u Yevropa modelining eng yangi va eng bahsli qismi hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqaruvchi majburiy minimal talablardan yuqoriga chiqqani uchun qo‘shimcha to‘lov oladi. Bunday mexanizmning kuchli tomoni – ixtiyoriylik: ishlab chiqaruvchi o‘z imkoniyatidan kelib chiqib qatnashadi. Zaif tomoni esa – natijaning kafolatlanmaganligi: agar qatnashuv past bo‘lsa, ekologik samara ham past bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu mexanizmni moslashtirishning maqbul shakli – uni suv tejovchi texnologiyalar bilan bog‘lash. Bunda rag‘bat mavhum ekologik amaliyot uchun emas, o‘lchanadigan aniq natija – suv sarfining kamayishi uchun beriladi. Bu ikki afzallikka ega: natija bevosita o‘lchanadi va tejalgan suv boshqa ishlab chiqaruvchilarga yo‘naltirilib qo‘shimcha iqtisodiy samara beradi.

Suv resurslari tanqis sharoitidagi tajriba alohida ahamiyatga ega bo‘lgani sababli Isroil va Xitoy modellari batafsil ko‘rib chiqiladi (3-jadval).

3-jadval

Suv resurslari tanqisligi sharoitidagi xorijiy tajriba elementlari

Vosita	Tajriba mazmuni	Erishilgan natija	Qoraqalpog‘iston uchun baho
Oqava suvni qayta ishlatish	Tozalangan oqava suvni qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirish; tozalash standartlarining qonuniy tartibga solinishi	Isroilda oqava suvning taxminan 86–90 foizi qayta ishlatiladi va u sug‘orish suvining qariyb yarmini beradi	Moslashtirilgan holda: shahar atrofidagi tumanlar uchun pilot loyiha
Tomchilatib sug‘orish	Suvni bevosita ildiz zonasiga yetkazish; davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va texnik xizmat tarmog‘i	Isroilda ekinlarning taxminan 75 foizi ushbu texnologiya bilan sug‘oriladi	To‘g‘ridan-to‘g‘ri: bog‘dorchilik va sabzavotchilikda
Suv hisobi va tariflashtirish	Har bir iste’molchi darajasida hisobga olish; hajmga bog‘liq tarif	Suv sarfining sezilarli qisqarishi va tejash uchun iqtisodiy rag‘bat	Moslashtirilgan holda: hisobga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish
Ixtisoslashgan kooperativlar	Mayda xo‘jaliklarni xizmat ko‘rsatish, ta’minot va sotish bo‘yicha birlashtirish	Xitoyda mayda xo‘jaliklar sharoitida masshtab samarasiga erishilgan	To‘g‘ridan-to‘g‘ri: chorvachilikda ustuvor yo‘nalish
Sho‘rga chidamli navlar	Selektsiya dasturlari va urug‘chilik tizimi	Sho‘rlangan yerlarda hosildorlikning saqlanishi	To‘g‘ridan-to‘g‘ri: shimoliy zona uchun ustuvor

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval tahlili Isroil tajribasining eng qimmatli jihatini ochib beradi: mamlakat suv tanqisligini resurs hajmini oshirish orqali emas, mavjud resursdan olinadigan natijani oshirish va ilgari yaroqsiz hisoblangan manbalarni aylanmaga kiritish orqali yengib chiqqan. Ushbu mantiq Qoraqalpog‘iston sharoitiga to‘liq mos keladi, chunki hududda Amudaryo oqimini oshirish imkoniyati mavjud emas.

Ayni paytda oqava suvni qayta ishlatish tajribasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishga bir necha to‘siq mavjud. Birinchidan, u rivojlangan kanalizatsiya va tozalash infratuzilmasini talab qiladi, bu esa qishloq joylarida cheklangan. Ikkinchidan, sanitariya standartlari va nazorat tizimi shakllantirilishi kerak. Uchinchidan, aholi tomonidan qabul qilinishi masalasi mavjud. Shu sababli ushbu vosita bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy etish emas, shahar atrofidagi tumanlarda pilot loyiha o‘tkazish tavsiya etiladi.

Xitoy tajribasining ahamiyati boshqa jihatda namoyon bo‘ladi. Ushbu mamlakat mayda xo‘jaliklarning ustunligi sharoitida masshtab samarasiga erishish muammosini hal qilgan va yechim yerni yiriklashtirishda emas, xizmat ko‘rsatishni markazlashtirishda topilgan. Kooperativ xo‘jaliklarning mustaqilligini saqlagan holda ular uchun yem-xashak ta’minoti, veterinariya xizmati, mahsulotni yig‘ish va sotish funksiyalarini bajaradi. Qoraqalpog‘iston chorvachiligida mahsulotning 89,9 foizi dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarilishi hisobga olinsa, aynan shu model eng dolzarb yechim hisoblanadi.


Suv hisobi va tariflashtirish vositasi bo‘yicha holat murakkabroq. Nazariy jihatdan hajmga bog‘liq tarif suvni tejash uchun eng kuchli iqtisodiy rag‘bat hisoblanadi. Amalda esa uni joriy etish uchun har bir iste’molchi darajasida hisobga olish uskunalari zarur, bu esa sezilarli boshlang‘ich investitsiyani talab qiladi. Bundan tashqari, tarifni keskin oshirish mayda xo‘jaliklarning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bosqichma-bosqich joriy etish – avval hisobga olish tizimini shakllantirish, so‘ngra tarif mexanizmini kiritish – maqsadga muvofiq.

Sho‘rga chidamli navlar bo‘yicha tajriba jadvalda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin deb baholangan, biroq bu yerda muhim shart mavjud. Navlar import qilinganda ular mahalliy agroiqlim sharoitida sinovdan o‘tkazilishi kerak, aks holda kutilgan natija olinmasligi mumkin. Shu sababli ushbu yo‘nalishda urug‘chilik va selektsiya tizimini rivojlantirish – ya’ni mahalliy ilmiy salohiyatni jalb qilish – zarur shart hisoblanadi.

Umuman olganda, jadval tahlili xorijiy tajribadan foydalanishning ikki xil strategiyasini ajratish imkonini beradi. Birinchisi – tayyor yechimni import qilish, u tez natija beradi, lekin tashqi ta’minotga bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Ikkinchisi – yechim yaratish qobiliyatini o‘zlashtirish, u sekinroq, ammo mustaqil rivojlanish asosini yaratadi. Optimal variant ikkisining kombinatsiyasi: texnologiyani import qilish bilan bir vaqtda uni moslashtirish va takrorlash bo‘yicha ilmiy salohiyatni shakllantirish.

O‘tkazilgan tahlil asosida xorijiy tajribani moslashtirish modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-rasm. Xorijiy tajriba elementlarini moslashtirishning uch bosqichli filtri

Filtrning ketma-ketligi tasodifiy emas. Institutsional muvofiqlik birinchi o‘ringa qo‘yilgan, chunki u eng qattiq cheklov hisoblanadi: moliyaviy resurs topilishi yoki texnik yechim moslashtirilishi mumkin, institutsional muhitni esa qisqa muddatda o‘zgartirib bo‘lmaydi. Yer mulkchiligi tizimiga tayanuvchi vosita mos institutsional asos bo‘lmagan sharoitda joriy etilsa, u shakl jihatidan mavjud bo‘lib, mazmun jihatidan ishlamaydi.

Ikkinchi filtr – resurs va moliyaviy imkoniyat – miqdoriy baholashga bo‘ysunadi va shu sababli eng oson qo‘llaniladi. Uning mohiyati vositani joriy etish xarajatini kutilayotgan samara bilan qiyoslashdan iborat. Uchinchi filtr esa hududiy tabaqalashtirish vazifasini bajaradi: bir vosita respublika miqyosida mos kelib, ayrim zonalarda qo‘llanilmasligi mumkin.

Modelning amaliy qiymati shundaki, u xorijiy tajribani baholashni sifat mulohazasidan tizimli tartibga aylantiradi. Har bir vosita bo‘yicha uchta aniq savolga javob beriladi va javoblar asosida qaror qabul qilinadi. Bu ekspertlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni kamaytiradi va qarorning asoslanganligini oshiradi.

Filtr orqali o‘n ikkita xorijiy vosita baholandi (4-jadval).

Matritsa tahlili quyidagi taqsimotni beradi: o‘n ikkita vositadan to‘rttasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin, oltitasi moslashtirishni talab qiladi, ikkitasi esa qo‘llanilmaydi. Ushbu nisbat xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyati keng ekanini, ammo uning aksariyat qismi mexanik ko‘chirishga emas, moslashtirishga muhtoj ekanini ko‘rsatadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan to‘rtta vositaning umumiy jihati diqqatga sazovor: ularning barchasi agrotexnologik yoki tashkiliy xarakterga ega bo‘lib, murakkab moliyaviy infratuzilmani talab qilmaydi. Aynan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

shu vositalar birinchi navbatda joriy etilishi maqsadga muvofiq, chunki ular tez natija beradi va keyingi, murakkabroq vositalar uchun asos yaratadi.

4-jadval

Xorijiy vositalarning Qoraqalpog‘iston sharoitida qo‘llanilish imkoniyati matritsasi

Vosita	1-filtr	2-filtr	3-filtr	Qaror
Almashlab ekish talabi	+	+	+	To‘g‘ridan-to‘g‘ri
Ixtisoslashgan kooperativlar	+	+	+	To‘g‘ridan-to‘g‘ri
Sho‘rga chidamli navlar	+	+	+	To‘g‘ridan-to‘g‘ri
Tomchilatib sug‘orish	+	+	+	To‘g‘ridan-to‘g‘ri
Eko-sxemalar (rag‘batlar)	+	±	+	Moslashtirib
Suv hisobi va tariflashtirish	+	±	+	Moslashtirib
Oqava suvni qayta ishlatish	±	±	+	Moslashtirib
Hosilni sug‘urtalash	±	±	+	Moslashtirib
Hududiy strategik rejalar	+	+	±	Moslashtirib
Qayta ishlash infratuzilmasi	+	±	+	Moslashtirib
Nooproduktiv maydonlar talabi	+	–	–	Qo‘llanilmaydi
Yerni uzoq muddatga aylanmadan chiqarish	±	–	–	Qo‘llanilmaydi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qo‘llanilmaydigan deb baholangan ikkita vosita bo‘yicha izoh talab etiladi. Ikkalasi ham yerni ishlab chiqarish aylanmasidan chiqarishni ko‘zda tutadi. Yer resurslari nisbatan mo‘l bo‘lgan mamlakatlarda bunday chora oqilona, Qoraqalpog‘istonda esa ekin maydoni allaqachon qisqarish tendensiyasiga ega – 2022-yildan buyon 7,5 foizga kamaygan. Bunday sharoitda qo‘shimcha maydonlarni ataylab chiqarish oziq-ovqat ta’minoti va bandlik nuqtai nazaridan asossiz hisoblanadi. Ularning ekologik funksiyasini boshqa vositalar – almashlab ekish va meliorativ tiklash – orqali bajarish mumkin.

Matritsaning ustunlar bo‘yicha tahlili ham foydali ma’lumot beradi. Birinchi filtrdan o‘n ikkita vositadan to‘qqiztasi to‘liq o‘tgan, uchtasi qisman o‘tgan; ikkinchi filtrdan esa faqat oltitasi to‘liq o‘tgan. Ya’ni asosiy to‘siq institutsional emas, resurs va moliyaviy xarakterga ega. Bu amaliy jihatdan ijobiy xulosa: moliyaviy cheklovlar bosqichma-bosqich joriy etish va tashqi moliyalashtirishni jalb qilish orqali yengilishi mumkin, institutsional to‘siqlar esa ancha qat’iy bo‘lar edi.

Nihoyat, moslashtirish jarayonining o‘zi ham vaqt talab qilishini hisobga olish lozim. Xorijiy vositani joriy etish uchun uchta bosqich zarur: huquqiy asos yaratish, pilot sinov o‘tkazish va keng ko‘lamda tarqatish. Har bir bosqich kamida bir-ikki yilni talab qiladi, ya’ni to‘liq sikl besh-yetti yilni tashkil etadi. Bu muddatni rejalashtirishda hisobga olmaslik dasturlarning muddatidan oldin samarasiz deb baholanishiga olib keladi.

Shuningdek, moslashtirish natijasini baholash mezonlari oldindan belgilanishi kerak. Aks holda vosita rasmiy jihatdan joriy etilgan hisoblanadi, ammo uning haqiqiy samarasi noma’lum qoladi. Har bir vosita uchun kamida bitta

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

miqdoriy indikator belgilanishi va u pilot bosqichdayoq o‘lchana boshlanishi tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, tahlil qilingan beshta xorijiy model tipologik jihatdan farqlanadi: Yevropa Ittifoqi modeli me’yoriy-rag‘batlantiruvchi, AQSH modeli risklarni boshqarishga yo‘naltirilgan, Isroil modeli texnologik, Xitoy va Janubiy Koreya modellari esa tashkiliy xarakterga ega. Har bir mamlakat vositani o‘zining eng keskin cheklovidan kelib chiqib tanlagan.

Ikkinchidan, institutsional shartlar bo‘yicha O‘zbekiston sharoitiga eng yaqin turuvchi modellar – Isroil, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi. Yevropa va AQSH modellari yuqori darajada rivojlangan institutsional infratuzilmani taqozo etadi va ular elementlar darajasida o‘zlashtirilishi mumkin.

Uchinchidan, xorijiy tajribani moslashtirishning uch bosqichli filtri ishlab chiqildi: institutsional muvofiqlik, resurs va moliyaviy imkoniyat, tabiiy-iqlimiy mos kelish. Filtrning ketma-ketligi cheklovlarning qattiqlik darajasiga asoslanadi.

To‘rtinchidan, filtr orqali baholangan o‘n ikkita vositadan to‘rttasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin (almashlab ekish talabi, ixtisoslashgan kooperativlar, sho‘rga chidamli navlar, tomchilatib sug‘orish), oltitasi moslashtirishni talab qiladi, ikkitasi esa qo‘llanilmaydi.

Beshinchidan, asosiy to‘siq institutsional emas, resurs va moliyaviy xarakterga ega. Bu bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini tanlashni asoslaydi: avval past xarajatli agrotexnologik va tashkiliy vositalar, so‘ngra ular yaratgan iqtisodiy asos hisobiga kapital talab qiluvchi vositalar.

Oltinchidan, Qoraqalpog‘iston sharoitida ustuvor yo‘nalish sifatida Xitoy tipidagi ixtisoslashgan kooperativlarni chorvachilikda rivojlantirish tavsiya etiladi, chunki hududda ushbu tarmoq mahsulotining 89,9 foizi mayda dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqariladi va aynan shu segment institutsional modernizatsiyaga eng ko‘p muhtoj.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan filtr asosida tanlangan vositalar bo‘yicha aniq joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilish ko‘zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tilman D., Cassman K.G., Matson P.A., Naylor R., Polasky S. Agricultural sustainability and intensive production practices // Nature. – 2002. – Vol. 418. – P. 671–677. DOI: 10.1038/nature01014

2. Pretty J. Agricultural sustainability: concepts, principles and evidence // Philosophical Transactions of the Royal Society B. – 2008. – Vol. 363, No. 1491. – P. 447–465. DOI: 10.1098/rstb.2007.2163

3. Environmental Indicators for Agriculture. Vol. 3: Methods and Results. – Paris: OECD, 2001. – 409 p.

4. SAFA: Sustainability Assessment of Food and Agriculture Systems. Guidelines Version 3.0. – Rome: FAO, 2014. – 253 p.

5. Bekchanov M., Lamers J.P.A., Martius C. Pros and cons of adopting water-wise approaches in the lower reaches of the Amu Darya: A socio-economic view // Water. – 2010. – Vol. 2, No. 2. – P. 200–216.

6. Djanibekov N., Van Assche K., Bobojonov I., Lamers J.P.A. Farm restructuring and land consolidation in Uzbekistan: New farms with old barriers // Europe-Asia Studies. – 2012. – Vol. 64, No. 6. – P. 1101–1126.

7. Regulation (EU) 2021/2115 establishing rules on support for strategic plans under the common agricultural policy. – Brussels: European Union, 2021.

8. Water Management in Israel: Key Innovations and Lessons Learned for Water-Scarce Countries. – Washington: World Bank, 2017.

9. Tal A. Rethinking the sustainability of Israel's irrigation practices in the Drylands // Water Research. – 2016. – Vol. 90. – P. 387–394.

10. Micklin P. The Aral Sea disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. – 2007. – Vol. 35. – P. 47–72. DOI: 10.1146/annurev.earth.35.031306.140120

11. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution A/RES/70/1. – New York: United Nations, 2015.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” // Lex.uz.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy ochiq ma’lumotlari. – URL: https://qrstat.uz (murojaat sanasi: 07.09.2026).

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**